

MA'NAVIIY-AXLOQIY TARBIYA TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy va axloqiy tarbiya tushunchasi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'рни hamda yosh avlod kamolatiga ko'rsatadigan ta'siri keng yoritilgan. Tarbiyaning oilada boshlanishi, ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liqligi va tarbiyaviy muassasalarning roli batafsil tahlil etiladi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, asosiy vazifalari, tarbiya turlarining jamiyat uchun ahamiyati ham izohlangan. Sharq mutafakkirlari, xususan Al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Forobiy kabi allomalarning tarbiya haqidagi qarashlari orqali ma'naviy tarbiyaning tarixiy ildizlari ochib beriladi. Maqolada yoshlar ongida vatanparvarlik, halollik, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak fazilatlarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, ta'lim, sharq mutafakkirlari, komil inson, qadriyatlar, ma'naviyat, ma'rifat, axloqiy fazilatlar, ta'lim-tarbiya, vatanparvarlik, jamiyat taraqqiyoti.

THE CONCEPT OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION AND ITS ESSENCE

Mahmudova Niginabonu Mizrof kizi

Student of the National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami

Abstract. This article extensively covers the concept of spiritual and moral education, its role in societal development, and its impact on the maturity of the younger generation. The beginning of upbringing in the family, its inseparable connection with the educational process, and the role of educational institutions are analyzed in detail. The content of spiritual and moral education, its main tasks, and the significance of types of education for society are also explained. The historical roots of spiritual education are revealed through the views of Eastern thinkers, particularly scholars such as Al-Bukhari, Alisher Navoi, and Farabi, on upbringing. The article demonstrates the theoretical and practical aspects of fostering high qualities in the minds of young people, such as patriotism, honesty, kindness, and diligence.

Keywords: Spiritual education, moral education, education, Eastern thinkers, perfect man, values, spirituality, enlightenment, moral qualities, education and upbringing, patriotism, social development.

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyatning rivojlanishi, xalq farovonligi va davlatning barqaror taraqqiyoti, eng avvalo, insonlarning ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk bo'lishiga bog'liqdir. Yoshlarni har tomonlama barkamol, komil inson sifatida tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bugungi kunda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Avvalambor, tarbiya atamasi qanday manoni anglatadi? Tarbiya-shaxsni muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Milliy tarbiya tizimimizda tarbiyaning quyidagi asosiy turlari mavjud: aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, huquqiy tarbiya. Tarbiya turlarining har biri muhim bo'lsa-da, ayniqsa, axloqiy tarbiya yoshlar qalbida insoniy fazilatlarni singdirishda markaziy o'rin tutadi. Axloq tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, axloq-ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shuning uchun ham, axloq-shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy moyillikning asosini, poydevorini tashkil etadi.

Axloqiy tarbiya esa jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarni zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli bo'lib hisoblanadi. Axloqiy tarbiya adabiyot, psixologiya, etika va estetika fanlari o'rganadigan ilmiy kategoriyadir. Axloqiy tarbiya deganda o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan insoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Axloqiy tarbiya insonlarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirish bilan bir qatorda, salbiy sifatlardan saqlanishga undaydi. Axloqiy tarbiyaning mazmuni sifatida quyidagilar qabul qilingan:

1. Jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;

2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
3. Atrofidagi kishilarga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
4. Shaxsning o‘z-o‘ziga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Axloqiy tarbiyada quyidagi jihatlarga e‘tiborni qaratish lozim:

- ✓ Axloqiy tarbiyani o‘qitish jarayoni bilan qo‘shib olib borish.
- ✓ “Yaxshi o‘qitilgan o‘qituvchi yaxshi tarbiyalaydi ham” (nemis pedagogi

A.V.Disterverg).

- ✓ O‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ya‘ni ahil, inoq jamoa tashkil qilish.

- ✓ Tarbiyaviy ishlarni ma‘lum reja asosida olib borish.

- ✓ Ijobiy emotsional sharoit yaratish, ya‘ni bayramlarni nishonlash.

- ✓ O‘quvchilarni qonun-qoidaga rioya qilishga o‘rgatish.

- ✓ Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, ma‘ruza, rag‘batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish.

- ✓ Ijtimoiy axloqni shakllantirishda mashq, o‘rnak usullaridan foydalanish.

- ✓ Muloqot soatlari saviyasini oshirish.

- ✓ Mehnat ilg‘orlari, ilm-fan xodimlari, mehnat va urush faxriylar, vasiylar va homiylar bilan uchrashuvlar tashkil qilish.

- ✓ Turli badiiy-adabiy kechalar, tadbirlar, bellashuvlar, olimpiadalar o‘tkazish.

- ✓ Sharq qadriyatlari va milliy an‘analar aks ettirilgan tadbirlarni muntazam ravishda mutolaa qilish, munozaralar o‘tkazib turish.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo‘lgan ma‘naviyatga bog‘liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma‘naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

Insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

Vatanparvarlik.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotiga emas, balki ma‘naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Ma‘naviyat - bu arabcha so‘z bo‘lib, biror narsa yoki xodisaning tub ma‘nosini, mohiyatini, mazmunini anglab etishdir. Ma‘naviyat - mantiq (logika) fani bilan talqin etilganda, u keng, ya‘ni jins tushuncha bo‘lib, uni qamrab olgan tur tushunchalar mavjud. Tarbiya, avvalo, oilada boshlanadi, keyin esa tarbiyaviy muassasalar va jamoat tashkilotlari orqali davom ettiriladi. Ma‘naviy tarbiya esa faqat ta‘lim jarayoni bilan birga olib borilgandagina samarali bo‘ladi. Chunki

o'quv jarayonida insonning faqat bilimi oshib qolmay, balki uning ma'naviy va axloqiy fazilatlari ham shakllanib boradi. Shu sababli ota-bobolarimiz azaldan ilmu ma'rifatni eng qimmat boylik deb bilib, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti hamda millat yuksalishining asosiy omili sifatida qadrlaganlar.

Ma'naviy tarbiya har qanday jamiyat hayotida katta o'rin tutadi. Chunki mamlakat taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy boyliklar uzluksiz ravishda yaratilishi zarur. Buning uchun yosh avlod ajdodlardan qolgan merosni davom ettiribgina qolmay, balki undan ham yuqori bosqichga ko'tarila olishi kerak.

O'quvchi - yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi;

- o'quvchilarning axloqiy e'tiqodini hosil qilish, ma'naviy qiyofani shakllantirish, komil inson tarbiyasi talablari va normalarini anglashga o'rgatish;
- kattalarga hurmat, tengdoshlari bilan o'rtoqlik-do'stlik, yosh bolalarga, bemorlar, nogironlarga, qariyalarga g'amxo'rlik qilish xislatlarini tarbiyalash;
- mehnatga, o'z kasbiga muhabbat hissini o'stirish, intizomli bo'lish, ijtimoiy mulkka yangicha munosabatni tarbiyalash;
- elim deb, yurtim deb yonib yashash, o'z shaxsiy manfaatini jamoa manfaatidan ustun ko'rmaslik, o'zining butun kuch qudrati-ni umum ishiga bag'ishlash tuyg'usini tarbiyalash;
- mehnatda va o'qishda printsiptiallik, qat'iylik, matonat, haqqoniylik, halollik, ishda ijodkorlik, insonparvarlik, yuksak vatanparvarlik, qat'iy jasorat, har qanday qiyinchi-liklardan qo'rqmaslik hislarini tarbiyalash;
- jamiyat tomonidan qabul qilingan qonun va qoidalarni ongli suratda bajarish, axloq-odob qoidalariga ongli suratda bo'ysunishga o'rgatish va hokazolar.

Maktabda o'quvchi-yoshlarga beriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, vazifalari yoshlarda yaxshi ma'naviy sifatlar, tajribalar hosil qilish, ularni axloqiy normalar va qoidalar to'g'risidagi dastlabki bilimlar bilan qurollantirish, axloqiy xislatlar va xulqiy fazilatlarni rivojlantirish, hamda ularda voqimli xatti-harakat ko'nikmalari va odatlarini vujudga keltirish va tarbiyalashdir.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi haqida Sharq va Markaziy Osiyo mutafakkirlari bitmas-tuganmas pedagogik g'oyalarni meros qoldirganlar:

Bahouddin Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Al-Forobiy, Az-Zamaxshariy, Al-Farg'oniy, A. Jomiy, A. Navoi, Rudakiy, Firdavsiy, Bedil, Xosir Xisrav, X.Shiraziy, Muqimiy, Furqat va boshqalarning odob-axloq sohasidagi ibratli g'oyalari yoshlarimizni ma'naviy etuk, axloqan pok, insonparvar va baquvvat qilib tarbiyalashda katta pedagogik ahamiyat kasb etadi. Masalan, Al-Buxoriy o'zining bir hadisida shunday deydi:

“Yurtning obodonchiligi, fuqarolarning to‘klikka 4 narsada namoyon bo‘ladi: amaldorlarning odil bo‘lishi; olim va ulamolarning ilmi bo‘lishi; boylarning saxovatli, muruvvatli bo‘lishi; fuqarolarning esa duogo‘y bo‘lishidadir.”


So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ham kambag‘al nochorlarga muruvvatli bo‘lish haqida o‘zining ko‘p asarlarida juda ko‘p va xo‘b fikrlarni bayon qilgan:

“Yuz yil osmonda dabdabali chaqmoq bo‘lgandan ko‘ra, yerda bir tutam olov bo‘lib, biror beva ayolning qozonini qaynashtirish - qirq yil quruq toat-ibodatdan afzaldir, ” - deb ta’kidlagan edi.

Inson boshqalarga, ayniqsa muhtojlarga amaliy yordam berishi - eng katta savob. Faqat so‘z yoki ibodat emas, balki odamga foyda keltiradigan chin ko‘ngildan qilingan yaxshilik Allohga ko‘proq ma’qul.

Navoiyning fikriga ko‘ra, tashqi ko‘rinadigan, dabdabali ishlardan ko‘ra, oddiy, samimiy, insonning ko‘ngliga yetadigan yordamning qadri ulug‘roq.

Shuning uchun yoshlar hamisha mehr-shafqatli, yordam berishga tayyor, insonparvar bo‘lishlari kerak. Bu ham ma’naviy axloqiy tarbiyaning bir ko‘rinishidir.



Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash jamiyatning bugungi va kelajak rivojida beqiyos ahamiyatga ega. Ma’naviy tarbiya oilada boshlanib, maktab va jamoat tashkilotlarida davom ettiriladi. Ta’lim jarayoni bilan birgalikda olib borilgan tarbiya o‘quvchilarda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik kabi yuksak sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining boy

pedagogik merosi esa bugungi tarbiyaviy ishlar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, yoshlar tarbiyasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga tayangan holda ishlash, ularda komil inson fazilatlarini tarkib toptirish ta’lim muassasalari va jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, Sharq nashriyot - matbaa konserni, 1997.
2. Munavvarov A.Q. “Pedagogika”. Toshkent, O‘qituvchi, 1996.
3. Rahim Ashurov. “Pedagogika”, Toshkent 2007.
4. To‘xtaxo‘jayeva, Hasanboyev “Pedagogika nazariyasi”, 1 qism, Toshkent 2007.
5. Sodiqov Q., To‘xtayev N. “Pedagogika nazariyasi va tarbiya metodikasi”. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. Hasanov A. “Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining zamonaviy yondashuvlari”. Toshkent: Innovatsiya, 2020.